TOSHKENT SHAHAR MIRZO ULUG‘BEK TUMANI HOKIMI
Q A R O R I

2023 - yil 14 - noyabr 376-14-200-Q/23 Mirzo Ulug‘bek tuman hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2024-yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-yil 5-6-son, 97-modda) 17-moddasi, “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008-yil 29-30-son, 277-modda) 25-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-martdagi “2019-yilda aholi bandligini ta’minlash va yangi ish o‘rinlarini tashkil etish bo‘yicha davlat buyurtmasi to‘g‘risida”gi PQ-4227-son qarori (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2019-yil 6-martdagi 07/19/4227/2782-son), O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2017-yil 11-dekabr 09/17/965/0393-son), shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining 2019-yil 10-maydagi 19-2019-B-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 31-mayda 3163-raqami bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan) “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2019-yil 31-maydagi 10/19/3163/3221-son) asosan, ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun Mirzo Ulug‘bek tumanida 2024-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N :

1. Mirzo Ulug‘bek tumanidagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni

ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash bo‘yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

2024-yilda mazkur toifadagi shaxslar uchun ish joylarining eng kam miqdori belgilangan korxonalar va tashkilotlar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasiga asosan tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar (keyingi o‘rinlarda ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar deb yuritiladi) uchun ish o‘rinlarining eng kam miqdori (2-ilova) xodimlarning ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha **359** ish o‘rnini tashkil etib, shu jumladan:

nogironlar uchun 19 foiz (69 ta);

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 34 foiz (124 ta);

o‘n to‘rt yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun 37 foiz (134 ta);

pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 4 foiz (16 ta);

safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 4 foiz (16 ta);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun 2 foiz (7 ta);

ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarning boshqa toifalari, shu jumladan odam savdosi qurbonlari uchun 1 foiz (6 ta) miqdorida ish o‘rinlari zahirasi belgilansin.

3. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun ish o‘rinlari sanitariya-gigiena me’yorlariga va xodim o‘z mehnat majburiyatlarini to‘siqsiz bajarishini ta’minlaydigan mehnat qilish sharoitlariga, shu jumladan, quyidagilarga muvofiq bo‘lishi ta’minlasin:

14 yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun – bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha majburiyatlar bajarilishini birga qo‘shib olib borish imkonini beruvchi ishning moslashuvchan jadvaliga ega;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagandan keyin kasbni egallagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun – ularning kasbiy tayyorgarligiga muvofiq;

safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun – ularning professional tayyorgarligiga mos;

nogironlar uchun – mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazilgan va xodimga ularning sog‘lig‘i holatini va mehnat faoliyatiga to‘g‘ri kelmaydigan belgilangan zidliklar hisobga olingan holda mehnat operatsiyalarini to‘siqsiz bajarish imkonini beradigan;

pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun – ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan;

jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun – ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan;

odam savdosi qurbonlari uchun – ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan.

4. Quyidagi ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar etib belgilansin:

muhandis, iqtisodchi, hisobchi, hisobchi-taftishchi, huquqshunos, zootexnik, agronom, shifokor, hamshira, kichik tibbiy xodim, ish yurituvchi, o‘qituvchi, tarozibon, elektr va avtoaravacha haydovchisi, tashuvchi, farrosh, o‘tyoqar, obodonlashtirish ishchisi, omborchi, EHM operatori, yukchi, ishchi, bog‘bon, qorovul.

5. 2-ilovada qayd etilgan korxona, tashkilot va muassasalarning rahbarlari:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq ushbu qarorning 2-ilovasida ko‘rsatilgan ish o‘rinlari tashkil etilishini ta’minlasin;

2024-yil boshlanishidan kamida 10 kun oldin, zahiraga qo‘yiladigan umumiy ish o‘rinlari sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish uchun zahiraga qo‘yilishini va tayyorligini ta’minlasin, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazini xabardor qilsin;

ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini zahiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan 2024-yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlasin, bu haqda tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga birinchi chorak tamom bo‘lgandan keyin 10 kundan kechikmay xabardor qilsin;

har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunigacha tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 5-ilovasiga muvofiq shakl bo‘yicha axborot taqdim etsin.

6. Tuman hokimining ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun ish

o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, bunday shaxslarni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilot, korxona va muassasalarning mansabdor shaxslariga nisbatan O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga asosan ma’muriy javobgarlik belgilanganligi alohida qayd etilsin.

7. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (M.Choriyev):

ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilot, korxona va muassasalarga har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda eng kam oylik ish haqqining 2 barobari miqdorida tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi tomonidan haq to‘lanishini ta’minlasin;

mazkur qarorni besh kun muddatda zahira o‘rin yaratayotgan tashkilot, korxona va muassasalarning rahbarlari e’tiboriga yetkazsin va tuman hokimining qarori bajarilishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

8. Tuman hokimligi Matbuot kotibi (M.Parmonov):

ushbu qaror tuman hokimligining rasmiy sahifasi va ijtimoiy tarmoqlarda yoritilishini ta’minlasin.

9. Mazkur qaror 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi.

10. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Saidaliyev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **Sh.T.Irgashev**

Mirzo Ulug‘bek tuman hokimining
2023-yil 14-noyabrdagi
376-14-200-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Mirzo Ulug‘bek tumanidagi ijtimoiy muxofazaga muxtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha komissiya tarkibi

Komissiya raisi

Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari	-	A.Saidaliyev

Komissiya a’zolari

Tuman IIOFM boshqarmasi boshlig‘i	-	F.Xaydarov
Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i	-	Sh.Ismailov
Tuman Budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi boshlig‘i	-	O.Ergashev
Tuman ijtimoiy-moslashtirish markazi rahbari	-	U.Bakiyev
Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari, komissiya kotibi	-	S.Saidolimov

Mirzo Ulug‘bek tuman hokimining
2023-yil 14-noyabrdagi
376-14-200-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Mirzo Ulug‘bek tumanidagi tashkilotlar bo‘yicha ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobat qila olmaydigan shaxslar uchun ish o‘rinlarini belgilash to‘g‘risida TAKLIFLAR

№	Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini belgilash taklif etilayotgan tashkilotlar ro‘yxati	Korxona tashkilotlarning manzili	Tashkilotning STIR	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	Oldingi yillar hisobga olingan holda taklif kiritilgan sanadan zaxiraga qo‘yilgan ish o‘rinlari soni	Kelgusi yilga zaxiraga qo‘yish taklif etilayotgan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:		Shundan:							
							Nogironlarga	Boshqa toifadagilarga	14 yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun	Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagandan keyin kasbni egallagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun	Safarbarlik chaqiriq zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun	Nogironlar uchun	Pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun	Jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun	Odam savdosi qurbonlari uchun	Telefon raqamlari
	JAMI:			29772	0	359	69	277	134	124	16	69	16	7	6	
1	O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI MARKAZIY HARBIY KLINIK GOSPITALI	MIRZO ULUG`BEK TUMANI, UL.ZIYOLILAR, D.4	202269188	1046		4	0	4	2	2						71 254 81 16
2	MIRZO ULUG`BEK TUMAN MARKAZIY KO`P TARMOQLI POLIKLINIKASI	MIRZO ULUG`BEK TUMANI, M-V TTZ-2, UL.AXILLIK, D.10	200540938	612		5	1	5	3	2		1				71 264 22 60
3	YANGI O`ZBEKISTON BOG`I OBYEKTLARINI SAQLASH VA EKSPLUATATSIYA QILISH DIREKSIYASI	Mirzo Ulug'bek tumani Yangi O`zbekiston ko`chasi	308910088	398		6	2	4	2	4		2	2			97 725 23 53
4	"APEX INSURANCE" AKSIYADORLIK JAMIYATI	Mirzo Ulug'bek tumani BUYUK IPAK YO'LI KO'CHASI, 154A-uy	305684696	379		10		10	2	7	1					98 126 00 85
5	"UNICON.UZ-FAN-TEXNIKA VA MARKETING TADQIQOTLARI MARKAZI" DAVLAT UNITAR KORXONASI	Mirzo Ulug'bek tumani QORASUV-3 MAVZESI, MING BULOQ KO`CHASI, 38-UY	200898586	287		10	2	9	2	6		2				90 188 58 01
6	"V.USPENSKIY NOMIDAGI RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN MUSIQA MAKTABI"	Mirzo Ulug'bek tumani Maxtumquli ko'chasi, 71-uy	200540605	55		13	1	12	4	8		1				71 233 15 87
7	TOSHKENT SHAHRIDAGI INHA UNIVERSITETI DAVLAT MUASSASASI	Mirzo Ulug'bek tumani Ziyolilar ko'chasi, 9-uy	302913673	26		6	1	5	3	2		1				97 130 79 01
8	"70-SON OILAVIY POLIKLINIKA" DAVLAT MUASSASASI	Mirzo Ulug'bek tumani GEOFIZIKA MFY, YANGIOBOD KO'CHASI	309229656	170		9	2	7	3	2		2	2			94 697 00 03

9	"O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI" DAVLAT MUASSASASI	Mirzo Ulug'bek tumani MOVAROUNNAHR KO'CHASI, 16-UY	201849503	152		6		6	2	3						99 886 50 00
10	TOSHKENT SHAHRIDAGI MMFI MILLIY TADQIQOT YADRO UNIVERSITETI FEDERAL DAVLAT AVTONOM OLIY TA'LIM MUASSASASINING FILIALI	Mirzo Ulug'bek tumani Xuroson ko'chasi, 1-uy	305926314	142		5	1	4	2	2		1				71 246 01 65
11	"SHEBA PROPERTIES" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	Mirzo Ulug'bek tumani O'zbekiston Ovozi ko'chasi, 2-uy	201758671	139		5	1	4			2	1	2			71 120 66 00
12	"TOSHKENT IMKONIYATI CHEKLANGAN SHAXSLAR UCHUN IXTISOSLASHTIRILGAN 1-SON KASB-HUNAR MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	Mirzo Ulug'bek tumani Munavvarqori MFY, Oyimarik ko'chasi, 4-uy	200794954	129		7	1	6	3	3	5	1				90 974 40 38
13	"NKT TRANS" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	Mirzo Ulug'bek tumani H.Olimjon maydoni, "Poytaxt" savdo markazi "C" blok	206461439	118		1		1		1						97 746 15 51
14	O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI M.T.O`ROZBOEV NOMIDAGI MEXANIKA VA INSHOOTLAR SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI INSTITUTI	Mirzo Ulug'bek tumani DO`RMON YO`LI KO`CHASI, 40-UY	304922660	114		8	1	7	3	2		1	2			94 643 80 92
15	ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI	Mirzo Ulug'bek tumani Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 81-uy	304949476	114		10	1	9	3	6		1				71 237 35 37
16	"D.MENDELEEV NOMIDAGI ROSSIYA KIMYO-TEXNOLOGIYA UNIVERSITETI FEDERAL DAVLAT BUDJET OLIY MA`LUMOT TA`LIM MUASSASASINING TOSHKENT SHAHRIDAGI O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI FILIALI"	Mirzo Ulug'bek tumani TTZ DAHASI, 47-UY	307685979	176		8	1	7	2	3		1	2			90 176 72 64
17	O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYASI OT SPORTI BO`YICHA RESPUBLIKA OLIY SPORT MAHORATI MAKTABI	Mirzo Ulug'bek tumani Oltintepa 1-tor ko'chasi, 37A-uy	200540763	108		6		6	3	2			1			90 969 65 71
18	"TOSHKENT IMKONIYATI CHEKLANGAN SHAXSLAR UCHUN IXTISOSLASHTIRILGAN 2-SON KASB-HUNAR MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	Mirzo Ulug'bek tumani YALANG'OCH DAXASI, RAXMATULIN KO'CHASI, SEKTOR 3	204811937	107		8	1	7	3	3		1	1			71 289 99 99
19	H.M.ABDULLAEV NOMIDAGI GEOLOGIYA VA GEOFIZIKA INSTITUTI	Mirzo Ulug'bek tumani OLIMLAR KO'CHASI, 64-UY	201123473	104		10	1	9	4	4	1	1				71 237 19 31

20	"O`ZBEKEKSPERTIZA" AKSIYADORLIK JAMIYATI	Mirzo Ulug'bek tumani Parkent ko'chasi, 51-uy	201037628	95		7	2	5	3	2		2				71 238 53 61
21	"`YANGI O`ZBEKISTON`` UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI	Mirzo Ulug'bek tumani MUSTAQILLIK SHOH KO`CHASI, 54-UY	308709154	81		7	2	5	2	3	1	2				97 443 03 74
22	"RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN`IY INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI" DAVLAT MUASSASASI	Mirzo Ulug'bek tumani BO'Z 2 MAVZESI, 17A-UY	308927120	79		7		7	3	4						90 132 63 72
23	O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI MILLIY ARXEOLOGIYA MARKAZI	Mirzo Ulug'bek tumani M.ULUG`BEK KO`CHASI, 81-UY	306816173	76		3		3	2	1						71 158 68 38
24	"RADIOPREPARAT" UNITAR KORXONA	Mirzo Ulug'bek tumani, Ulug'bek shaharchasi Mirzo Ulug'bek ko'chasi	200523474	39		5	2	3	3			2				71 289 34 63
25	"ALTUS OMEGA" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	Mirzo Ulug'bek tumani, Mirzo Ulug'bek tumani xok-tiga qarashli shaharchalar SAYRAM 7-TOR KO'CHASI, 92-UY	300831065	69		5		5	4	1						97 774 22 23
26	"YASHILLOYIHA LOYIHALASH INSTITUTI" DAVLAT MUASSASASI	Mirzo Ulug'bek tumani Navnihol MFY, Do`rmon yoli ko`chasi, 2a-uy	200993294	70		6	1	5	3	2		1				71 173 00 53
27	"NAVROZ DEHQON BOZORI" AKSIYADORLIK JAMIYATI	Mirzo Ulug'bek tumani BUYUK IPAK YO`LI VA GULSANAM KO`CHALARI KESISHUVI	201806588	58		5	1	4	3	1		1				71 264 50 60
28	"QIMMATLI QOG`OZLARNING MARKAZIY DEPOZITARIYSI" DAVLAT UNITAR KORXONASI	Mirzo Ulug'bek tumani Mustaqillik shoh ko'chasi, 107-uy	203021987	56		4		4	2	1			1			71 267 37 42
29	"TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI TEXNIKUMI" DAVLAT MUASSASASI	Mirzo Ulug'bek tumani MUSTAQILLIK SHOX KO'CHASI, 7-UY	200540613	39		6	1	5	4	1		1				71 233 45 39
30	"NOBEL PHARMSANOAT" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	Mirzo Ulug'bek tumani Qorasuvbuyi ko'chasi, 5A-uy	203340511	453		7		7	2	2	2		1			71 265 91 99

31	"O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI BUDJET-SOLIQ ILMIY TADQIQOTLARI INSTITUTI" DAVLAT MUASSASASI	Mirzo Ulug'bek tumani Oqqorgon MFY, Darxontepa ko`chasi, 7-uy	300978301	66		5		5	3	2						71 232 44 17
32	"TOSHKENT GEODEZIYA VA KARTOGRAFIYA KOLLEJI" DAVLAT MUASSASASI	Mirzo Ulug'bek tumani MIRZO ULUG`BEK KO`CHASI, 82-UY	200540794	48		4	1	3	2	1		1				71 260 17 43
33	NOVATIO PHARMA GROUP MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	Mirzo Ulug'bek tumani BO`Z MAVZESI, 69-UY	302082063	49		5	1	4	3	1		1				97 764 80 55
34	O`ZBEKGIDROGEOLOGIYA	Mirzo Ulug'bek tumani OLIMLAR KO`CHASI, 64-UY	305414532	996		4		4	3	1						71 262 43 78
35	DAVOLASH-PROFILAKTIKA MARKAZI	Mirzo Ulug'bek tumani OLIMLAR KO`CHASI, 64-UY	204713551	146		3	1	2	2			1				71 266 30 34
36	MIRZO ULUG`BEK TUMANI MAKTABGACHA TA`LIM BO`LIMI TASSARUFIDAGI 69-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI MAKTABGACHA TA`LIM MUASSASASI	Mirzo Ulug'bek tumani Sog`lom avlod ko`chasi, 1-uy	207031315	34		3	1	2	1	1		1				71 266 69 22
37	"УПРАВЛЕНИЕ МАЛОЙ МЕХАНИЗАЦИИ" ГУП СО УДАП РУЗ	Beshkappa ko'chasi	207215156	124		4	1	3	2	1		1				99 363 66 70
38	SPORT KURASHLARI BO`YICHA IXTISOSLASHTIRILGAN OLIMPIYA ZAXIRALARI MAKTABI	Mirzo Ulug'bek tumani Mustaqillik shoh ko'chasi, "Dinamo" stadioni	302411887	31		5	2	3	2	1		2				90 984 42 74
39	"TOSHKENT SHAHRIDAGI PIZA UNIVERSITETI FILIALI" NODAVLAT TA`LIM MUASSASASI	Mirzo Ulug'bek tumani OLIMLAR KO'CHASI, OLIMLAR MFY, 43- UY	309449224	31		4	2	2	2			2				90 137 75 69
40	LOKOMOTIV ISTIROHAT BOG'I OOO	Mirzo Ulug'bek tumani TEMUR MALIK KO`CHASI 66A-UY	302427067	41		3		3	1	1				1		97 762 94 48
41	O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI DAVLAT VA HUQUQ INSTITUTI	Mirzo Ulug'bek tumani M.ULUG`BEK KO`CHASI, 81-UY	308031754	30		2		2	1	1						94 661 16 84

42	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI TIBBIYOT BOSH BOSHQARMASINING MAXSUS AVTOTRANSPORT BILAN TA'MINLASH BOSHQARMASI	Mirzo Ulug'bek tumani Buyuk ipak yo'li ko'chasi, 417-uy	200541303	205		3		3	1	2						90 997 10 50
43	"MIRZO ULUG'BEK TUMANI MAKTABGACHA TA`LIM BO'LIMI TASSARUFIDAGI 72-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI" NODAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	Mirzo Ulug'bek tumani Jannatmakon ko'chasi, Geofizika MFY, 38-yili	207031290	26		3	2	1	1			2				90 924 04 44
44	"O`ZYO`LKO`KALAMZORLASHTIRISH" UNITAR KORXONA	Mirzo Ulug'bek tumani MUSTAQILLIK SHOH KO`CHASI, 68-UY	305127304	25		6	2	4	2	1		2		1		71 264 82 42
45	"YADRO FIZIKASI INSTITUTI TAJRIBA ZAVODI KONSTRUKTORLIK BYUROSI" DAVLAT UNITAR KORXONASI	Mirzo Ulug'bek tumani Ulug'bek shaxarchasi	200524584	24		3		3	2	1						71 260 64 41
46	"O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA TA`LIM VAZIRLIGI TASARRUFIDAGI TOSHKENT SHAHAR MIRZO ULUG`BEK TUMANIDAGI 422-SONLI EKSPERIMENTAL DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	Mirzo Ulug'bek tumani OLOY DAXASI, MUSTAQILLIK MFY	301759865	22		2		2	1	1						71 207 04 08
48	"MIRZO ULUG'BEK TUMANI MAKTABGACHA TA`LIM BO'LIMI TASSARUFIDAGI 73-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI" MAKTABGACHA TA`LIM MUASSASASI	Mirzo Ulug'bek tumani E`ZOZ KO`CHASIDAGI BINO	207075846	20		2		2	1	1						93 375 76 06
49	"SAMARQAND IPAK TEXTILE" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	MIRZO ULUG`BEK TUMANI, CHILDITURON 1	308641787	25		6	6					6				93 001 84 04
50	"MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI TASARRUFIDAGI PROFILLI MEHNAT TA'LIMIGA IXTISOSLASHTIRILGAN DAVLAT UMUMTA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	Mirzo Ulug'bek tumani D.ABIDOVA KO'CHASI	200541944	149		4	1	3	2	1		1				90 162 80 67
51	"338-SONLI UMUMIY O`RTA TA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	Mirzo Ulug'bek tumani QORASU-6 DAXASI, AVAYXON KOCHASI	308948640	114		3	1	2	1	1		1				90 277 07 95
52	"343-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	Mirzo Ulug'bek tumani ALISHEROBOD MFY, MILLIY BOG' KO'CHASI	206915909	96		3	1	2	1	1		1				90 918 47 26
53	382-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	Mirzo Ulug'bek tumani A.Yugnakiy mavze	301242537	64		3	1	2	1	1		1				99 816 06 59

54	"MIRZO ULUG'BEK TUMANI 1-SON SPORT MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	Mirzo Ulug'bek tumani AHMAD YUGNAKIY MAVZESI, KALTATOY KO'CHASI	303827257	61		2	1	1	1			1				97 721 21 07
55	525-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	Mirzo Ulug'bek tumani Qorasu 3-mavze, 1a-uy	301244050	51		2	1	2	1			1				71 265 62 43
56	504-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	Mirzo Ulug'bek tumani TTZ-2 MAVZE, 45-UY	301242710	53		3	1	2	1	1		1				71 264 57 77
57	493-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	Mirzo Ulug'bek tumani Parkent ko'chasi, 4-uy	301242703	51		3	1	2	1	1		1				71 267 38 61
58	512-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	Mirzo Ulug'bek tumani TTZ 2-mavze, 44-uy	301242727	53		2	1	1	1			1				71 264 79 07
59	38-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	Mirzo Ulug'bek tumani Gulbadanbegim ko'chasi, 32a-uy	301244161	52		3	1	2	1	1		1				71 262 54 72
60	MIRZO ULUG`BEK TUMANI 344-SONLI UMUMTA`LIM MAKTABI	Mirzo Ulug'bek tumani Milliy bog` ko`chasi	206916186	42		3	1	2	1	1		1				97 758 19 66
61	520-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	Mirzo Ulug'bek tumani QORASU-3 MAVZESI	301242742	40		3	1	2	1	1		1				71 265 43 46
62	153-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	Mirzo Ulug'bek tumani GEOLOGIYA KO'CHASI, 4-uy	301243930	39		2	1	1	1			1				71 235 02 95
63	597-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	Mirzo Ulug'bek tumani Parkent ko'chasi, 31-uy	301244218	39		3	1	2	1	1		1				71 269 20 37
64	"MIRZO ULUG`BEK TUMANIDAGI 56-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI" MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI	Mirzo Ulug'bek tumani Binokor ko'chasi, 68-uy	309242333	36		4	1	3	2	1		1				90 178 85 18

65	УЧРЕЖДЕНИЕ "29-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI"	Mirzo Ulug'bek tumani Binokor ko'chasi, 68-uy	202101871	33		2	1	1	1			1				71 264 82 42
66	437-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	Mirzo Ulug'bek tumani Bo'z mavze, 28a-uy	301422185	32		4		4	1	3						98 110 69 12
67	410-SONLI UMUMIY TIPDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	Mirzo Ulug'bek tumani Muxtor Xodja Xoshimov ko'chasi, 22-uy	301242609	28		3	1	2	1	1		1				71 268 65 09
68	"MIRZO ULUG'BEK TUMANI 3-SON MADANIYAT MARKAZI" DAVLAT MUASSASASI	Mirzo Ulug'bek tumani Feruza ko`chasi, 24-uy	308774494	21		3		3	1	2						71 263 84 80
69	"MIRZO ULUG'BEK TUMANI OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI" DAVLAT MUASSASASI	Mirzo Ulug'bek tumani Ғаълкент кучаси 51-уй	200541492	612		15	1		1			1	2	5	6	71266 79 46
70	"O'ZBEKGEOFIZIKA" AJ	Mirzo Ulug'bek tumani GEOFIZIKA MFY, BUYUK KELAJAK KO'CHASI, 5-UY	201577724	3960		15	4	11	5	4	2	4				88 007 16 16
71	NAQLGAZMAXSUSQURILISH AO	Mirzo Ulug'bek tumani Mirzo Ulug`bek ko`chasi, 32A-uy	200837874	24		3	1	2				1				99 852 03 72
72	"DASTURIY MAHSULOTLAR VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI TEXNOLOGIK PARKI DIREKSIYASI" MASʻULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	Mirzo Ulug'bek tumani TEPAMASJID KO'CHASI, 4-UY	305975326	228		4	1	2			2	1				90 185 00 15